“O’ta o’tkazuvchan materiallar: muammolar, texnologiyalar, tadqiqot usullari” mavzusida o’tkazilgan xalqaro ilmiy-onlayn seminar

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti tomonidan “O’ta o’tkazuvchan materiallar: muammolar, texnologiyalar, tadqiqot usullari” mavzusida xalqaro ilmiy onlayn seminar o’tkazildi.

Seminarda N.P. Ogaryov nomidagi Mordoviya Davlat universiteti (Rossiya), Gruziya Fanlar akademiyasining E. Andronikashvili nomidagi Fizika instituti, O’zbekiston Milliy universiteti, Buxoro davlat universitetining olimlari, doktorantlari va yosh mutaxassislari, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi mtaxassislari ishtirok etdilar.

Seminar o’ta o’tkazuvchan materiallarni olish va ishlab chiqish bo’yicha tadqiqotlarning hozirgi holatini muhokama etish maqsadida o’tkazildi.

Seminarda O’zbekiston olimlari tomonidan Katta Quyosh qurilmasida (Materialshunoslik instituti) o’ta o’tkazuvchanlik xususiyatiga ega materiallar olish, energetika sohasini tok uzatish uchun asos bo’lib hisoblanuvchi yuqori kritik xossali o’ta o’tkazuvchan keramik materiallar bilan ta’minlashda Quyosh texnologiyasining afzalliklari haqidagi ma’ruzalari taqdim etildi. Shuningdek, o’ta o’tkazuvchanlikdagi donalararo chegaralarda zaryadlar ulushi, nano qatlamli tuzilmalar nazariyasi va bozonlar nazariyasi nuqtai nazaridan nazariy yondashuvlar muhokama qilindi.

Ishtirokchilarda, professor V.Tavkelidze (Gruziya) tomonidan taqdim etilgan o’ta o’tkazuvchanlik xususiyatiga ega fazalarni o’rganish uchun vibratsiyali indikator usulidan foydalanish g’oyasi katta qiziqish o’yg’otdi. Ushbu usul O’zbekistondagi Katta Quyosh qurilmasida olingan o’ta o’tkazuvchan materiallarni o’rganish uchun qo’llanilgan hamda yuqori haroratli o’ta o’tkazuvchan fazalar hosil bo’lishini tasdiqlagan.

Professor N.Kuzmichev (Rossiya), magnit xususiyatlar haqida, gisterezisni o’rganish, o’ta o’tkazuvchan materiallar magnit xossalarining haroratga to’g’ri va teskari bog’liqliklarini o’rganish borasidagi tadqiqotlar natijalarini muhokamaga taqdim etdi. Ma’ruza, O’zR FA Materialshunoslik institutida ushbu usulni qo’llagan holda tadqiqotlar o’tkazish va qurilmalar yaratib amaliyyotda foydalanish imkoniyatlari mavjudligi bilan qiziqish uyg’otdi.

Ishtirokchilar O’zbekistonda yuqori haroratlarda o’ta o’tkazuvchan materiallarni olish sohasida izlanishlar yuqori saviyada olib borilayotganligi, mujassamlangan Quyosh nurlanishining materialga ta’siri asosida energiya tejamkor innovatsion nanotexnologiyalar ishlab chiqarilayotganini ta’kidladilar.

Muhokamalar yakunida seminar ishtirokchilari Katta Quyosh qurilmasida (O’zbekiston) o’ta o’tkazuvchan materiallarni olish va shu yo’nalishdagi tadqiqotlarni kengaytirish bo’yicha o’zaro hamkorlik to’g’risida kelishib oldilar.